

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar
fanlarning dolzarb
muammolari**

Son 10 Jild 4
2024

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ 10 (4) - 2024

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2024

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Абдор – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Холикулов Ахмаджон Боймаҳамматович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Габриэльян Софья Ивановна – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Миллий Университети.

Саидов Сарвар Атабулло ўғли – катта илмий ходим, Имом Термизий халқаро илмий-тадқиқот маркази, илмий тадқиқотлар бўлими.

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Насирходжаева Дилафруз Сабитхановна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Остонокулов Азамат Абдукаримович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент молия институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Хожаев Азизхон Саидалохонович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Фарғона политехника институти

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакарров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Муҳаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Саидова Камола Усканбаевна – фалсафа фанлари доктори, “Tashkent International University of Education” халқаро университети;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Ўроқова Ойсулув Жамолиддиновна – фалсафа фанлари доктори, доцент, Андижон давлат тиббиёт институти, Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси мудири;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳхаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳасанов Шавкат Аҳадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Бахронова Дилрабо Келдиёровна – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Мирсанов Ғайбулло Қулмуродович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:

Аҳмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Эргашев Икром Абдурасулович – юридик фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич – юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Ҳашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Каюмова Насиба Ашуровна – педагогика фанлари доктори, профессор, Қарши давлат университети;

Тайланова Шохида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент;

Жуманиёзова Муҳайё Тожиевна – педагогика фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Ибрахимов Санжар Урунбаевич – педагогика фанлари доктори, Иқтисодиёт ва педагогика университети;

Жавлиева Шахноза Баходировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Василя Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Шамшетова Анжим Карамаддиновна – психология фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пулатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабобевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси.

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атакулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Jale Özlem, Murodaliev Rakhmonali, Askarov Ollabergan</i> ABOUT ARCHAEOLOGICAL SURVEY IN TASHKENT REGION (2022)	9-17
<i>Хомиджонова Мафтунахон</i> АРХЕОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ СЕВЕРО-ЗАПАДНОЙ УСТРУШАНЫ, В ЧАСТНОСТИ БАСЕЙНА ЗААМИНСУ	18-26
<i>Nig'matullayev Ibrohim</i> SHIA JAMOALARINING MUQADDAS JOYLARI VA ZIYORATLARI	27-32
<i>Arslonbekov Nursulton</i> ZIYOVUDDINXON IBN ESHON BOBOXONNING ARAB MAMLAKATLARIDA BO'LGAN DASTLABKI SAFARI VA UNING NATIJALARI	33-36
<i>Nasirillayeva Nodirabegim</i> ABDULLA NOSIROVNING "TURON" KUTUBXONASIDAGI FAOILAYATI	37-42
<i>Tuyev Fazliddin</i> NAVOIY VILOYATIDA SOG'LIQNI SAQLASH BORASIDA O'ZARO TASHQI HAMKORLIK ALOQALARI	43-47
<i>Davlatova Shoir</i> TURKISTON SOVET AVTONOMIYASINING E'LON QILINISHI VA O'LKADA BOLSHEVIKLARNING BOSHQARUV TASHKILOTLARI	48-53
<i>Muminov Azizbek</i> TURIZM SOHASIDA EKOLOGIK BILIM VA EKOLOGIK MADANIYATNI YUKSALTIRISH	54-59
<i>Abdullayev Elbek</i> AMIR TEMUR VA MUZAFFARIYLAR DAVLATI O'RTASIDA MUNOSABATLARNI YO'LGA QO'YILISHI	60-63
<i>Turg'unov Sherzod</i> NAMANGAN VILOYATI SANOAT KORXONALARIDA MEHNATKASHLAR UCHUN YARATILGAN SOG'LIKNI SAQLASH, SPORT-SOG'LOMLASHTIRISH VA MADANIY – MA'RIFIY SOHADAGI SHAROITLAR HAQIDA FIKR MULOHAZALAR	64-71

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Berdaliyeva Muxabbatxon</i> O'ZBEKISTONDA UY-JOYNI MOLIYALASHTIRISHNI TARTIBGA SOLISH: IQTISODIY VA HUQUQIY JIHATLARI	72-79
<i>Ergashev Jahongir</i> KICHIK BIZNES FAOLIYATIDA TA'MINOT ZANJIRINI BOSHQARISHNING NAZARIY JIHATLARI	80-84
<i>Imomov Xolmurod</i> TA'LIM XIZMATLARI BOZORIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIGINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY YONDASHUVLARI	85-90

<i>Атамуродов Шерзод, Самадов Салоҳиддин</i> ИННОВАЦИОН ТАДБИРКОРЛИК ФАОЛИЯТНИ МОЛИЯЛАШТИРИШНИНГ НАЗАРИЙ- УСЛУБИЙ АСОСЛАРИ	91-99
<i>Қодиров Музаффар</i> РАҚОБАТ МУҲИТИДА ТАШКИЛОТЛАРНИ РИВОЖЛАНТИРИШ СТРАТЕГИЯСИ САМАРАДОРЛИГИНИ БАҲОЛАШНИНГ УСЛУБИЙ АСОСЛАРИ	100-108
<i>Amiriddinova Muslima</i> ANALYSIS OF TOURISM SERVICE TYPE AND GENERAL CATERING TO INCREASE THE TRAFFIC AND TRAFFIC	109-114
09.00.00 – FALSAFA FANLARI	
<i>Yuldashev Tazabay</i> DARVIN VA MARKS TA'LIMOTI INSON BORLIG'INI OBYEKTIV TUSHUNTIRISHNING XULOSASI SIFATIDA	115-119
<i>Sultanov Og'abek</i> SHARQDA YOSHLAR MAS'ULIYATIGA DOIR FALSAFIY QARASHLAR RIVOJI	120-123
<i>Tursunkulova Shaxnoza</i> HADISLARDA INSONNING GO'ZAL FAZILATLARI XUSUSIDA	124-127
<i>Khushbokov Oybek</i> THE "TEACHER" PHENOMENON IN THE HISTORICAL AND PHILOSOPHICAL SPACE OF CULTURE	128-134
<i>Tojaliyev Abduqosim</i> YANGI O'ZBEKISTON TARAQQIYOTIDA ZAMONAVIY KADRLAR TAYYORLASH TIZIMINING INNOVATSION ISTIQBOLLARI	135-139
<i>Sadullaeva Matluba</i> NUMBER AS THE ESSENCE OF THINGS: PYTHAGOREAN PHILOSOPHY	140-145
10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
<i>Mirzakamolova Maftuna</i> ASSOCIATIV LINGVISTIKA VA UNING XUSUSIYATLARI	146-150
<i>Temirova Hayotxon</i> DIALECT CLASSIFICATION AND PHONETIC CHARACTERISTICS OF UZBEK DIALECTS IN THE SURKHANDARYA REGION	151-155
<i>Surmilova Elena</i> LINGUISTIC AND CULTURAL CHARACTERISTICS OF TONGUE TWISTERS: A LITERATURE REVIEW	156-164
<i>Mahmudova Nigoraxon</i> PRAGMALINGVISTIKADA IKKI YO'NALISH	165-169
<i>Ergasheva Gulshan</i> NEMISCHA FRAZEOLOGIZMLARNING STRUKTUR-SEMANTIK TAHLILI (INSON INTELLEKTUAL SALOHİYATINI IFODALOVCHI IBORALAR MISOLIDA)	170-174
<i>Masharipova Valentina</i> DIFFICULTIES CLASSIFYING PARALINGUISTIC MEANS IN A LITERARY TEXT	175-182

Ibragimova Gulshan

O‘ZBEK SHOIRLARI VA ADIBLARI IJODIDA CHINOR DARAXTI OBRAZI 183-188

12.00.00 – YURIDIK FANLAR*Халиқулов Комолиддин*“COMITAS GENTIUM” ДОКТРИНАСИННИНГ ХОРИЖИЙ ДАВЛАТ СУД
ҚАРОРЛАРИНИ ТАҲ ОЛИШ ВА ИЖРО ЭТИШГА ТАЪСИРИ 189-195*Yakubov Xushnudbek*

TERRORIZMNING KELIB CHIQUISH SABAB VA OMILLARI 196-202

*Mutalov Oybek*O‘ZBEKISTONDA ELEKTRON SHARTNOMALARNING HUQUQIY TARTIBI:
MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLAR 203-208*O‘razbayev Laziz*DAVLAT BUYURTMASI ASOSIDA YARATILGAN MUALLIFLIK HUQUQI
OBYEKTLARINING HAMDA XIZMAT ASARINING O‘ZIGA XOS JIHATLARI 209-214*Arslonqulova Aziza*INTELLEKTUAL MULK HUQUQINI XALQARO XUSUSIY HUQUQDA TARTIBGA
SOLISH MASALALARI 215-219**13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI***Saidova Kamola*КОМПАРАТИВНЫЙ АНАЛИЗ РОЛИ ШКОЛЫ И УНИВЕРСИТЕТА В ВОСПИТАНИИ
ЗАПАДНОЙ МОЛОДЕЖИ 220-225*Jumaniyozova Muhayyo*OLIIY TA'LIMDA IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNI O'QITISHGA
KREATIV YONDASHUVNING ZARURATI 226-232*O'smanova Diloromxon*BOSHLANG'ICH SINFI O'QUVCHILARINING ADABIY-NUTQIY KOMPETENSIYALARINI
SHAKLLANTIRISH VA TASHXISLASHNING ASOSIY MEZONLARINI ANIQLASH 233-240*Nasriddinov Dadaxon*OLIIY HARBIIY TA'LIMDA FIZIKA O'QITISH SAMARADORLIGINI MOBIL ILOVALAR VA
ROBOTOTEXNIKA ELEMENTLARI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH YUZASIDAN
AMALGA OSHIRILGAN ISHLAR 241-250*Fayziyeva Dildora, Rajabova Gulchexra*BO'LAJAK PEDAGOGLARNING MEDIA KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH
ISTIQBOLLARI 251-259*Marhabo Sayfulloyevna*BUXORO JADIDLARINING TA'LIM-TARBIYAGA OID ASARLARIDA MILLIY
TARBIYA MUAMMO SIFATIDA 260-267*Юсупов Лутфуллоҳ*

КРЕАТИВ ТАЪЛИМНИ ЖАМИЯТ РАВНАҚИДАГИ АҲАМИЯТИ 268-272

Norboyev Farhod

INNOVATSIYALAR MANBALARI: AKTYOR-TARMOQ NAZARIYASI 273-278

Received: 30 September 2024

Accepted: 5 October 2024

Published: 15 October 2024

Article / Original Paper

THE MAIN DIRECTIONS OF THE DEVELOPMENT OF MEDIA COMPETENCE OF FUTURE TEACHERS

Fayzieva Dildora Khayatovna,

PhD student of Bukhara State University

Rajabova Gulchehra Salomovna,

Bukhara State Pedagogical Institute

teacher of the Department of Mathematics and informatics

Abstract. Currently, the issue of organizing the professional activities of teaching staff through information and communication technologies in daily work at a professional level is relevant. It is also important to prepare instructional content for them on the use of various software products, especially taking into account the activity of students on social networks. In particular, the fact that employees with higher education at a professional level use modern ICT (information and communication technologies) in their daily work contributes to increased productivity in the field in which they work. The article considers examples of the development of media competence within the framework of the science of using information technology in professional activities through various video tasks, as well as quiz test tasks using social networks.

Keywords: technology, communication, media, network, system, program, function, method, process.

BO'LAJAK PEDAGOGLARNING MEDIA KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI

Fayziyeva Dildora Hayotovna,

Buxoro davlat universiteti (PhD) doktoranti

Email:dildora13.fayziyeva@gmail.com

Rajabova Gulchexra Salomovna,

Buxoro davlat pedagogika instituti

Matematika va informatika kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: Hozirgi kunda pedagog-xodimlarning professional darajada kundalik ishlarda axborot kommunikatsion texnologiyalar orqali kasbiy faoliyatini tashkil etishi dolzarb masala hisoblanadi. Ayniqsa, talaba-yoshlarning ijtimoiy-tarmoqlarda faolligini inobatga olgan holda ular uchun turli dasturiy mahsulotlardan foydalanish bo'yicha yo'riqnoma kontentlar tayyorlash ham muhimdir. Xususan, oliy ma'lumotga ega bo'lgan xodimlar professional darajada kundalik ishlarida zamonaviy AKT (axborot kommunikatsion texnologiyalar)dan foydalanishi ular ishlayotgan sohada ish unumdorligini oshishiga xizmat qiladi. Maqolada axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatda qo'llash fani doirasida turli video topshiriqlar hamda ijtimoiy tarmoqlar imkoniyatidan foydalanib quiz test topshiriqlari orqali media kompetentlikni rivojlantirish misollar orqali yoritilgan.

Kalit so'zlar: texnologiya, kommunikatsiya, media, tarmoq, sistema, dastur, funktsiya, metod, jarayon.

Kirish. Ma'lumki bugunki kun, ya'ni ayni davrning dolzarb talabi har bir soha vakilidan axborot texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmasini talab etadi. Ixtiyoriy soha vakillaridan o'z kasbiy faoliyatlariga doir bilimlarni bilish barobarida, ofis, grafik dasturlaridan foydalanib, media kompetentlik ko'nikmalariga ega bo'lgan holatda kasbiy faoliyatini olib borishi muhim ahamiyat kasb etadi. Talabalarining axborot texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmasini bir qator metodlar orqali rivojlantirish mumkin. Ayniqsa, amaliy mashg'ulotlarni tashkil etib, amaliy mashqlar asosida, turli topshiriqlarni bajarib ko'rishlari hisobiga mediakompetentlik, ya'ni zamonaviy dasturiy mahsulotlar hamda texnik vositalardan foydalanish ko'nikmasi rivojlantiriladi. Ayniqsa, talaba-yoshlarning ijtimoiy-tarmoqlarda faolligini inobatga olgan holda ular uchun turli dasturiy mahsulotlardan foydalanish bo'yicha yo'riqnoma kontentlar tayyorlash ham muhimdir. Xususan, oliy ma'lumotga ega bo'lgan xodimlar professional darajada kundalik ishlarida zamonaviy AKT (axborot kommunikatsion texnologiyalar)dan foydalanishi ular ishlayotgan sohada ish unumdorligi oshishi butun dunyo mamlakatlari miqyosida tan olingan fakt hisoblanadi[2].

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Adabiyotlar tahliliga qaraydigan bo'lsak, ta'lim jarayonida bo'lajak pedagoglarning media kompetentligini rivojlantirish sohasida quyidagi tadqiqotlar olib borilgan:

Qozog'istonlik olim K. Zabiyeva o'z tadqiqotlarida bo'lajak matematika o'qituvchilarini web texnologiyasi imkoniyatlaridan foydalanishga o'rgatish, ta'limning interaktiv shakllari, xususan, web-texnologiyalar, (web-quest) WebQuest, ya'ni web so'rovlarga asoslangan dars formatida o'quv jarayonini qo'llab-quvvatlash, onlayn dasturlar va turli xil messengerlardan foydalanish bo'yicha metodlar ishlab chiqilgan.

Г. Ж. Смагулова , Г. Б. Саржанова , Г. К. Тлеужанова, N. Stanchular chet tili bo'yicha multimedia o'quv qo'llanmalarini ishlab chiqish sohasida bo'lajak o'qituvchilarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish mavzusidagi tadqiqotlarida, ta'limni raqamlashtirish kontekstida multimedia chet tili bo'yicha o'quv qo'llanmalar haqiqiy audio va video materiallarni tashkil etish va ularni o'quv jarayoniga integratsiya qilish, bo'lajak chet tili o'qituvchilariga samarali multimedia ta'lim mahsulotlarini yaratishni o'rgatish va multimedia, raqamli kompetensiya masalalari yoritilgan.

Ukrainalik olim Viktoriya Hrynko ijtimoiy tarmoqlar, raqamli kompetensiya haqidagi tadqiqotida bo'lajak o'qituvchilarning kognitiv, ijodiy, kommunikativ va hamkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish uchun elektron ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish imkoniyatlarini o'rganish, elektron ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishning hozirgi motivatsiyasini aniqlash uchun olingan natijalarni tahlil qilish, taqqoslash va sintez qilish usullari va ularni o'quv jarayonida ham talabalar, ham o'qituvchilar o'qituvchilarini o'qitish va o'qitish faoliyatida qo'llash ko'nikmalarini aniqlash uchun anketa, so'rov, kuzatish, etnografiya kabi usullardan foydalanilgan, Muallif tomonidan raqamli ta'lim texnologiyalarini loyihalash kontseptsiyasi asosida bo'lajak boshlang'ich maktab o'qituvchilarini tayyorlash, o'qituvchilarning kasbiy faoliyatida axborot texnologiyalari, zamonaviy axborot texnologiyalari kurslarini o'rganishda o'quvchilarni kognitiv (fikrlash, tajriba va his-tuyg'ular orqali bilim va tushunishni egallashning aqliy harakati yoki jarayoni), ijodiy, kommunikativ va hamkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish uchun elektron ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishga o'rgatishni o'z ichiga olgan eksperimental dastur ishlab chiqilgan.

Tolmachova Iryna Heorhiivna (Rossiya) bo'lajak boshlang'ich maktab mutaxassislarining media kompetensiyalarini shakllantirish mavzusidagi ishida bo'lajak o'qituvchilarning media kompetensiyasi konsepsiyasini retrospektiv tahlil qilingan, boshlang'ich sinf o'quvchilarining media savodxonligini shakllantirish bo'yicha o'qituvchi-innovatorlarning dizayn yondashuvini o'rganish hamda mualliflik media mahsulotlarini yaratish va ommaviy axborot vositalarining ta'lim imkoniyatlari bo'yicha o'zini

takomillashtirish, o'zini rivojlantirish uchun motivatsion va axborot materiallarini kadrlar bilan ta'minlash kabi masalalar tahlil qilingan.

Sultan Qaboos Universiteti professori Ahmed Yousif Abdelraheemning (Arab davlati) mobil ijtimoiy media ilovalarining talabalar hayotiga ta'siri mavzusidagi ilmiy tadqiqoti birinchi navbatda so'rov yordamida miqdoriy yondashuv bilan amalga oshirilgan. Mobil ijtimoiy texnologiyalar ijtimoiy ta'lim muhitini yaratish uchun yangi va innovatsion usullarni taqdim etib, muayyan masalalarda hamkorlik qiladigan talabalarining onlayn jamoalarini yaratish uchun ijtimoiy aloqalar uchun chat, kanal kabilarda ishlash imkonini berishi kabi xulosalarga kelingan.

Shvetsariyalik olim Carina Granberg ta'lim, AKT, rekontekstualizatsiya (nutqdan kontekstni ajratib olish jarayoni) haqidagi tadqiqotining maqsadi o'qituvchilarni tayyorlash dasturlarida o'qitish uchun axborot kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha bir nechta tashabbuslar amalga oshirish jarayonini sinchkovlik bilan o'rganish va pedagogik ta'lim tizimida axborot kommunikatsion texnologiyalariga asoslangan o'qitish usullaridan foydalanish va tarqatish hisoblanadi. Tadqiqotda axborot kommunikatsion texnologiyalarini qo'llab-quvvatlaydigan uchta o'qitish va o'qitish usullari tanlangan: individual rivojlanishni raqamli rejalashtirish (IUP), bloglar va elektron portfolio. O'qituvchilar va talabalarining AKTdan pedagogik foydalanishni joriy etish bo'yicha tajribalarini to'plash uchun 115 ta intervyu o'tkazilgan va to'rt yillik davrda (2006-2010) to'rtta so'rovnoma o'tkazilgan, bloglar va elektron portfolio kabi AKT tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan metodikalar AKT nutqlari va loyihalari ijtimoiy jihatdan ishlab chiqilgan rekontekstualizatsiya jarayoni orqali kontekstda o'z aksini topgan.

O'zbekiston olimlari tomonidan ham bo'lajak pedagoglarning media kompetentligini rivojlantirish sohasida qator ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. **J.O. Hakimov** bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarining axborot-kommunikatsion tayyorgarligini kompyuterli loyihalash vositalari asosida takomillashtirish ("Kompyuterli loyihalash" o'quv fani misolida) mavzusidagi tadqiqotida "Kompyuterli loyihalash" o'quv fanini fanlararo o'quv moduli asosida o'qitish orqali bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarining axborot-kommunikatsion tayyorgarligini kompyuterli loyihalash vositalari asosida takomillashtirish jarayoni modelini ishlab chiqish va ilmiy asoslash maqsadida kasb ta'limining rivojlanish tendensiyalarini aniqlashtirishga imkon beruvchi ilmiy-metodik adabiyotlarni metodologik va nazariy tahlil etish, kasbiy bilim, ko'nikma va amaliy malakalarni shakllantirishga tizimli yondashuv; tajriba materiallarini tahlil va sintez qilish; kuzatish, so'rovnoma o'tkazish, talabalarining bilim, ko'nikma va amaliy malakalar hamda kasbiy muhim sifatleri darajasini tashxis qilish, pedagogik tajriba-sinovdan olingan ma'lumotlarni matematik-statistik qayta ishlash metodlaridan kompleks foydalangan. Kasb ta'limi yo'nalishlari talabalarining kompyuterli loyihalash vositalari bo'yicha axborot kommunikatsion tayyorgarligi darajalarini (kognitiv, protsessual, faoliyatli) tashxislash tahlili, loyihalash-konstruktorlik, amaliy test, darajali topshiriqlarni bosqichli bajarish komponentlari funksiyalarini integrativ muvofiqlashtirish orqali obyektiv baholash imkoniyatlari ochib berilgan.

T.N. Jo'rayev raqamli texnologiyalar asosida talabalar o'quv-biluv faoliyatini takomillashtirish metodikasi (Ta'limda axborot texnologiyalari fani misolida) mavzusidagi tadqiqotida bo'lajak o'qituvchilarni raqamli ta'lim texnologiyalari va bulutli dasturlash servislardan foydalanib o'quv-biluv faoliyatini takomillashtirish maqsadida Tadqiqotda mavzuga oid ilmiy, pedagogik, psixologik adabiyotlarni qiyosiy o'rganish va tahlil qilish, ijtimoiy-pedagogik (kuzatish, suhbat, tashxislash, so'rovnoma, test), tajriba-sinov, olingan natijalarini matematik va statistik qayta ishlash metodlardan foydalanib, ta'limda axborot texnologiyalari fanidan ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarni matnli, video va animatsiya yordamida kasbiy faoliyatga yo'naltirib o'qitish mazmunini takomillashtirishga xizmat qiladigan raqamli ta'lim uchun metodik ta'minot yaratilgan; fanni o'qitishda raqamli ta'lim muhitini hosil qiluvchi mobil ta'lim va elektron axborot resurslari bulutli dasturlash

xizmatlaridan foydalanib yaratilgan, ulardan foydalanish bo'yicha ko'rsatmalar ishlab chiqilgan; baholash mezonlari asosida bulut texnologiyasidan foydalanib, interfaol testlar ishlab chiqilgan va ta'lim jarayoniga joriy etilib, o'zlashtirish samaradorligi aniqlangan.

G.T. Yuldasheva klasterli yondashuv asosida talabalarning axborot-kommunikativ kompetentligini rivojlantirish metodikasi (informatika o'qitish metodikasi fani misolida) tadqiqotida informatika o'qitish metodikasi fanini o'qitish jarayonida bo'lajak mutaxassislarining "kommunikativ kompetentligini rivojlantirish uchun zarur pedagogik shart-sharoitlarni aniqlash", nazariy jihatdan asoslash maqsadida tadqiqotda adekvat holatda o'rganishni ta'minlashga qaratilgan nazariy (tahliliy-sintetik, qiyosiy-taqqoslash, analogiya, modellashtirish), diagnostik (so'rovlar, test o'tkazish, kuzatish, loyihalashtirilgan metodikalar), prognostik (ekspert baholash, mustaqil baholarni umumlashtirish), pedagogik tajriba-sinov va matematik metodlar (ma'lumotlarni statistik qayta ishlash, natijalarni grafik tasvirlash va boshqa) kabi usullar majmui qo'llab, bo'lajak mutaxassislarining kommunikativ kompetentligini ta'lim shakllarining klasterli muhitida rivojlantirishga qaratilgan ta'lim metodlari (smart, sindikat, scamper, diamond)dan samarali foydalanilgan va dasturiy vositalar ustuvorligini ta'minlagan holda talabalarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirishga xizmat qiluvchi "Informatika o'qitish metodikasi" nomli o'quv qo'llanma ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy etilgan;

R.U. Umarova tomonidan ta'limni axborotlashtirish sharoitida o'quvchilarning intellektual salohiyatini rivojlantirish va bu jarayonning metodikasini takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish maqsadida tadqiqot ishlari olib borilgan. Tadqiqot jarayonida ilmiy-uslubiy adabiyotlarning tahlili, sintez, taqqoslash, pedagogik kuzatuv, suhbat, anketa, ekspert baholash, faoliyat natijalarini o'rganish, so'rovnoma, pedagogik eksperiment va materiallarning matematik-statistik tahlil usullaridan foydalanilgan. Natijada, o'quvchilarning intellektual salohiyatini rivojlantirish mezonlari va me'yorlari aniqlashtirilgan. Shuningdek, "Ta'limni axborotlashtirish sharoitida o'quvchilarning intellektual salohiyatini rivojlantirish" nomli uslubiy qo'llanma amaliyotga joriy etilgan, "Informatika va axborot texnologiyalari" fanidan interfaol amaliy mashg'ulot ishlanmalari yaratilgan, va iSpring Quiz Maker ilovasidan foydalanishga oid metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan.

F.P. Raxmonqulov raqamli texnologiyalar yordamida bo'lajak informatika o'qituvchilarining web-dizayn bo'yicha kompetentligini rivojlantirish metodikasini ishlab chiqqan. Bu metodika talabalarda web-dizayn bo'yicha kompetentlikni rivojlantirish uchun motivatsion va variativ yondashuvlarga asoslangan kasbiy axborotlarga ishlov berishni, shuningdek, kreativ rejalashtirishning differensial bosqichlarini shaxsiy xususiyatlar bilan integratsiyalashni ko'zda tutadi. Shuningdek, fanlararo aloqalarga asoslangan pedagogik, ijtimoiy va psixologik tashxis orqali kompetensiyaviy mezonlarni optimallashtirishga qaratilgan. Bu jarayon kasbiy tayyorgarlik sifatini barqaror ta'minlash uchun grafik topshiriqlarni raqamli tahlil muhitida moslashuvchan va takroriy intervalda qo'llashni talab qiladi. Ushbu amaliy takliflar va tavsiyalar "Kompyuter grafikasidan videodarslar" nomli elektron o'quv qo'llanmasi mazmuniga kiritilgan.

G.B. Quzmanova tomonidan olib borilgan "O'quvchilarning ijtimoiy kompetentligini rivojlantirish metodikasi (8-sinf misolida)" nomli tadqiqotida sinfdan tashqari mashg'ulotlarda o'quvchilarning ijtimoiy kompetentligini oshirishga qaratilgan tadqiqot jarayonida pedagogik kuzatuv, qiyosiy tahlil, tajriba-sinov ishlari, so'rovnoma, test, suhbat, bahs-munozara, onlayn monitoring, hamda natijalarni matematik-statistik usullardan foydalanib qayta ishlash va tahlil qilish metodlari qo'llanilgan. Ushbu jarayonda ta'limda ijtimoiy media marketing vositalaridan foydalanish orqali o'quvchilarning raqamli savodxonligini rivojlantiruvchi model yaratilgan. Shuningdek, umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quvchilari uchun ijtimoiy tarmoqlar orqali to'garak mashg'ulotlarini o'tkazish uchun elektron platforma ishlab chiqilgan (Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk agentligidan olingan № DGU 19480 - sonli guvohnoma) va amaliyotga tatbiq etilgan.

J.H. Hamrayevning “Telekommunikatsiya texnologiyalari vositasida talabalarga informatika fanini o‘qitish metodikasi (“Texnologik ta’lim” bakalavriat ta’lim yo‘nalishi misolida)” nomli tadqiqotida telekommunikatsiya texnologiyalari yordamida talabalarga informatika fanini o‘qitish maqsadida nazariy, psixologik, pedagogik, tabiiy-ilmiy (informatika), umumkasbiy va ixtisoslik fanlariga oid adabiyotlar tahlil qilinadi. Tadqiqot muammosi va fanlararo uzviylik nuqtai nazaridan o‘rganilib, malaka talablarining tahlili amalga oshiriladi. Empirik usullar sifatida kuzatish, suhbat va statistik metodlar – so‘rovnoma, pedagogik tajriba-sinovi va matematik-statistika usullari qo‘llaniladi. Natijada, bo‘lajak texnologik ta’lim o‘qituvchilarining informatika fanini o‘qitish orqali kasbiy kompetensiyalari komponentlarini baholash mezonlari ishlab chiqilgan. Shuningdek, telekommunikatsiya texnologiyalari yordamida informatika o‘qitishning metodik modeli yaratilgan va amaliyotga joriy etilgan. Bo‘lajak o‘qituvchilarni telekommunikatsiya texnologiyalari vositasida kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan “Informatika” fani uchun dasturiy mahsulotlar ishlab chiqilgan va amaliyotga tatbiq etilgan.

P.T. Abduqodirova tomonidan bo‘lajak o‘qituvchilarda algoritmik kompetensiyalarni rivojlantirish orqali kasbiy faoliyatga tayyorlash metodikasi bo‘yicha tadqiqot olib borilgan. Ushbu tadqiqotda psixologik-pedagogik va metodik adabiyotlar tahlili, muammoga doir asosiy tushunchalar tahlili, prognozlash, modellashtirish, retrospektiv tahlil, suhbat, so‘rovnoma, pedagogik tajriba-sinov, test va matematik-statistik tahlil usullari qo‘llanilgan. Tadqiqot natijasida bo‘lajak o‘qituvchilarda algoritmik kompetensiyalarni baholash uchun diagnostik vositalar ishlab chiqilgan hamda ularni rivojlantirishga doir ilmiy-metodik tavsiyalar tayyorlangan. Diyorimizda pedagogika oliy ta’lim muassasalarida nomutaxassis yo‘nalishlar o‘quv rejalariga “Axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatda qo‘llash” fani tanlov fan sifatida kiritilgan. Shu fan bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlar kesimida turli topshiriqlar yaratilishi, talabalar media kompetentlik ko‘nikmasini takomillashtirishga hissa qo‘shadi.

Bo‘lajak pedagoglarning media kompetentligini rivojlantirish maqsadida “Axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatda qo‘llash” fani doirasida quyidagi metodlar ishlab chiqildi:

1. Axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatda qo‘llash fani doirasida amaliy topshiriqlar tayyorlash
2. Amaliy topshiriqlar bajarilishi ko‘rsatilgan video qo‘llanmalar yaratish
3. Talabalarining nazariy bilimlarini tekshirish maqsadida test (Quiz testlar) tuzish
4. Amaliy topshiriqlar bajarilish davomiyligini vaqt mezonida baholash
5. O‘rganuvchilarning topshiriqlarni mustaqil bajara olish imkoniyatini yuqori baholash

Amaliy topshiriqlarning bajarilish jarayonida talabalarining foydalanilayotgan dasturning imkoniyatlarini qo‘llashda texnik vositalardan foydalanish ko‘nikmasi maksimal darajada kengayadi. Topshiriqlarning video qo‘llanmasini talabalarga tarqatilishi, ularga ixtiyoriy o‘zlariga qulay fursatda video qo‘llanmalarni qayta-qayta ko‘rish orqali vazifani bajarish imkoniyati berilishi, topshiriqni bajara oladiganlar jamoasini kengaytiradi.



Information technology_buxdpi

@dildorafayziyeva6292 · 23 подписчика · 8 видео


Подробнее о канале >

Настроить вид канала

Управление видео


Главная Видео 🔍

Все видео ▶ Воспроизвести все



1-rasm Axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatda qo'llash fani doirasida tayyorlangan video qo'llanmalar.

Tayyorlangan video qo'llanmalarni talabalarga tushunarli, oson bo'lishi muhim sanaladi, qolaversa video qo'llanmalarning qisqa hamda mazmunli bo'lishiga ahamiyat berish lozim. Bundan tashqari, Telegram ijtimoiy tarmog'ida Buxoro davlat pedagogika instituti tabiiy fanlar yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatda qo'llash maqsadida guruh tashkil etilgan. Ushbu guruhda turli ko'rinishdagi test topshiriqlari ishlab chiqilmoqda. Sifatli test topshiriqlarini tayyorlashda telegram messengerining imkoniyatidan unumli foydalanilgan.



2-rasm. Telegram ijtimoiy tarmog'ida yaratilgan quiz testlardan namunalar

Yuqoridagi 2-rasmda berilgan ko'rinishdagi quiz testlar talabalar bilim, ko'nikma va malakalarining rivojlanishiga, tezkor javob berish qobiliyatining kengayishiga, amaliy topshiriqlar bajarilish jarayoniga sarflanadigan vaqtni qisqartirishiga xizmat qiladi.

Olingan natijalar va ularning tahlili. Turli video qo'llanmalar orqali amaliy topshiriqlarni bajarish ko'nikmasi bu mediani samarali boshqarish va undan foydalanish qobiliyatidir. Axborot izlash, manbalarni tekshirish va turli media vositalaridan foydalanishni o'z ichiga olgan amaliy mashg'ulotlar o'quvchilarga media platformalardan malakali foydalanuvchi bo'lishga yordam beradi. Masalan, talabalarga onlayn manbalar, kitoblar va intervyulardan foydalangan holda ma'lum bir mavzuni tadqiq qilish topshirilishi mumkin. Ushbu faoliyat talabalarga ishonchli ma'lumotni qanday topish va ishonchli manbalar va soxta

yangiliklar o'rtasidagi farqni tushunish imkonini beradi. Bundan tashqari, amaliy muammolar ijodkorlik va media ishlab chiqarish ko'nikmalarini rivojlantirishi mumkin. Talabalar podkastlar, videolar yoki ijtimoiy media tarmoqlaridagi kabi o'zlarining mutaxassisliklari doirasida media kontentlarni yaratishlari mumkin[5]. Ommaviy axborot vositalarini ishlab chiqarishning barcha jarayonida faol ishtirok etib, talabalar nafaqat texnik ko'nikmalarni rivojlantiradilar, balki xabarlarini samarali muloqot qilish qobiliyatini ham oshiradilar. Bu ularga ommaviy axborot vositalarining passiv iste'molchisi emas, balki faol ijodkor va ishtirokchi bo'lish imkoniyatini beradi. Video topshiriqlarni, testlarni bajarishda ishtirok etish jamoada ishlash, hamkorlik va muloqot qobiliyatlarini rivojlantirishga ham yordam beradi. Ko'pincha media-loyihalar talabalardan guruhlarda ishlashni, fikr almashishni, topshiriqlarni topshirishni va ularning natijalarini taqdim etishni talab qiladi. Ushbu hamkorlik orqali o'quvchilar o'z fikr va mulohazalarini samarali tarzda ifoda etishni, turli nuqtai nazarlarni muhokama qilishni va umumiy maqsadga erishish uchun birgalikda harakat qilishni o'rganadilar. Bunday ko'nikmalar nafaqat ommaviy axborot vositalari sohasida, balki turli professional va shaxsiy kontekstlarda ham muvaffaqiyatga erishish uchun zarurdir.

Maqolada taqdim etilgan video qo'llanma shaklidagi vazifalar va "Axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatda qo'llash" telegram guruhidagi test topshiriqlarini amalda bajarish ko'nikmalarini o'zlashtirgan o'rganuvchilar kelajakda kasbiy faoliyati mobaynida mazkur ko'nikmalarni qo'llab, vaqtni samarali boshqarishga erishadilar.

Xulosa. Amaliy vazifalar bo'lajak pedagoglarning media kompetentligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Har xil vazifalar talabalarga olingan bilimlarni amaliyotda qo'llash, tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish va media muhitida faol ishtirok etish imkonini beradi. Amaliy tajriba orttirish orqali talabalar mediasavodxonlik haqida chuqurroq tushunchaga ega bo'ladilar va ommaviy axborot vositalarining murakkab olamida faol bo'lishga yaxshiroq tayyorlanishadi. O'qituvchilar va talabalar o'rtasida media kompetensiyasini rivojlantirishga yordam berish va ularni ommaviy axborot vositalariga asoslangan jamiyatda faol ishtirok etishga tayyorlash maqsadida ta'lim dasturlariga amaliy mashg'ulotlarni joriy qilish juda muhimdir. Shuningdek, bo'lajak pedagoglarda media kompetentlik malaka va ko'nikmalarining mavjudligi, ularning kasbiy pedagogik faoliyatini tashkil etishda va kreativ yondashuvni qo'llashda muhim vosita bo'ladi.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Ahmed Yousif Abdelraheem. The Impact of Using Mobile Social Network Applications on Students' Social-Life. *International Journal of Instruction*, v11 n2 p1-14 Apr 2018
2. Carina Granberg. Social software for reflective dialogue: Questions about reflection and dialogue in student teachers' blogs. *Technology, Pedagogy and Education*. 2010. 19(3), 345-360
3. D.KH Fayziyeva, G.KH. Turayeva. Artificial intelligence in modern projects //Universum: tekhnicheskiiye nauki 2023.// № 4 (109) — 52-54 betlar
4. D.KH Fayziyeva. B.N.Takhirov. Z.M. Adizova. Obucheniye programmirovaniyu s pomoshch'yu geymifikatsii//Vestnik nauki i obrazovaniya 2022 //№ 6 (126).Part 2. 33-37- betlar
5. D.KH Fayziyeva. SH.T. Yakhyayeva. Vliyaniye tsifrovogo obrazovaniya na uspekhi uchashchikhsya //Universum: tekhnicheskiiye nauki 2022.// № 5 (98) — 48-51 betlar
6. Fayzieva D.Kh. About the theory of multiple intelligence. *Vestnik nauki i obrazovaniya* 2020. № 19 (97), Part 2. 85-88- betlar
7. Fayzieva D.Kh. Using software for teaching foreign languag using software for teaching foreign languages. *Academy* 2020. № 9 (60). 13-17 betlar

8. Fayziyeva D.KH. Ustanovleniye razgovornogo trakta v IP-telefonii // Molodoy uchenyy. 2017. №4. 113-114 betlar
- P.T. Abduqodirova. Maktab informatika kursini mobil texnologiyalar asosida o'qitish. Science and innovation. 2022. №2. 165-167-betlar

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ 10 (4) – 2024

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).